



Toshkent  
kimyo-texnologiya  
instituti



# BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI



17.2.2- Sizning universitetingiz tashkilot sifatida BRMLar bo'yicha tarmoqlararo dialogda masalan. hukumat/NNTlar ishtirokidagi konferentsiyalarda ishtirok etadimi?



2022 yilning 26-29 may kunlari Toshkent kimyo-texnologiya institutida “Barqaror rivojlanishda fundamental fanlar Xalqaro yili” (YuNESKO) doirasida “Kimyo-barqaror rivojlanish uchun” xalqaro ilmiy-texnikaviy haftaligi bo’lib o’tdi. Haftalik doirasida: “Shisha, keramika va bog’lovchi materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari” xalqaro konferensiyasi; “Yosh kimyogarlar tanlovi” respublika kimyo olimpiyadasi; “Yosh olimlar” xalqaro forumi; Kimyogar olimlar ishtirokida seminarlar, Master klasslar o’tkazildi. 26-may kuni Ilmiy haftalik doirasida Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Uzkimyosanoat” AJ, “O’z sanoatqurilish materiallari” uyushmasi bilan hamkorlikda Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan e’lon qilingan “Xalqaro shisha yili” doirasida “Shisha, keramika va bog’lovchi materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari” xalqaro konferensiyasi bo’lib o’tdi. 28-29 may kunlari “Yosh olimlar” xalqaro forumi bo’lib o’tdi. “Yosh olimlar forumi” “Uzkimyosanoat” AJ, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, D.I.Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filiali tomonidan tashkillashtirildi.

15.06.2022 – 16.06.2022 kunlari Toshkent kimyo-texnologiya instituti tashabbusi bilan O’zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasi bilan hamkorlikda “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda Biotexnologiyaning zamonaviy muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo’lib o’tdi.

2022- yil 20- yanvar kuni TKTi Xalqaro hamkorlik bo’limi TKTi talabalari uchun "Xalqaro akademik almashinuv dasturlari hamda talabalar uchun xorijda tahsil olish imkoniyatlari" mavzusida onlayn seminar trening o’tkazildi.

2022- yil 4- mart kuni EURIE 2022, Eurasia Higher Education Summit miqyosida TKTining xalqaro hamkorlik bo’limi boshlig’i Z.Babaxanova PRME assotsiatsiyasi a’zosi sifatida qatnashdi.

2022- yil 11-mart kuni Toshkent kimyo-texnologiya institutida PRME doirasida “Ta’limda ma’suliyatli boshqaruv bo’yicha Yevrosiyo tashabbuslari” mavzusida Almata menejment universiteti bilan birgalikda vebinar bo’lib o’tdi.

2022-yil 12-aprel kuni 31 yildan buyon o’tkazilib kelinayotgan konferensiya “UMIDLI KIMYOGARLAR-2022” ilmiy-texnikaviy anjumanining ochilish marosimi bo’lib o’tdi. Ilmiy-texnikaviy anjumanni institut rektori professor Botir Shukurullayevich Usmonov ushbu ilmiy-amaliy anjuman tarixi, ko’zlangan maqsad va vazifalar haqida batafsil ma’lumot berib, “UMIDLI KIMYOGARLAR-2023” ilmiy-texnikaviy anjumanini xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya sifatida o’tkazish taklifini bildirdilar. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor X.L.Pulatov konferensiya dasturi, sho’balar manzillari haqida ma’lumot berib, anjuman ishtirokchilariga omad tiladi.

2022-yil 30-aprel kuni institut tashabbusi bilan III marotaba o’tkazilayotgan “NEFT VA GAZ SOHASIDA TA’LIM-ISHLAB CHIQRISH KLASTERINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusida Xalqaro konferensiya start oldi. Xalqaro konferensiyada AQSH, Rossiya, Belorussiya, Polsha, Qatar, Malayziya kabi davlatlardan



Toshkent  
kimyo-texnologiya  
instituti



vakillar ishtirok etishdi! Konferensiya davomida Science Euroasia professional assotsiatsiyasi direktori Anton Protasov bilan ikki tomonlama shartnoma imzolandi. Shartnomaning asosiy maqsadi "Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar" Xalqaro ilmiy-texnikaviy konferensiyasi materiallarini Scopus xalqaro ilmiy bazasiga joylashtirish, institut yosh olimlariga ilmiy seminarlar o'tkazish, hamkorlikda ilmiy anjumanlar o'tkazish hisoblanadi.

[https://www.instagram.com/invites/contact/?i=1jtx8klnkaqp0&utm\\_content=laumwk0](https://www.instagram.com/invites/contact/?i=1jtx8klnkaqp0&utm_content=laumwk0)

2022-yil 25-noyabr kuni Toshkent kimyo-texnologiya institutida "BioTech Advances 2022: International Annual Conference on Recent Advances in Biotechnology Research and Applications" Xalqaro ilmiy (Scopus, Web of science) konferensiya bo'lib o'tdi. Batafsil ma'lumotlar:

<https://researchadvances.org/conferences/biotech-2022.html>.